



MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANG'ICH TA'LIM O'RTASIDAGI UZVIYLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Meyliyeva SevaraBaxodir qizi

3rd year student of Chirchik state Pedagogical University

Email:meilyevasevara337@gmail.com

*Scientific adviser: **Ruzmetova Diana Kamilovna***

Act.assoc.prof (PhD) of Chirchik state Pedagogical University

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashning asosiy pedagogik, psixologik va tashkiliy-metodik mexanizmlari tahlil qilinadi. Boshlang'ich sinfga qadam qo'ygan bola uchun mos kompetensiyalarni shakllantirish, bilim, ko'nikma va malakalarning izchil davom etishi, ta'lim dasturlarining integratsiyalashgan holda yaratilishi masalalari yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchi va tarbiyachilar hamkorligi, o'quv muhitining uzviyligi, bola rivojlanishining bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlanishi amaliy misollar asosida ochib beriladi.

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, uzviylik, integratsiya, kompetensiya, rivojlanish bosqichlari, metodik hamkorlik, adaptatsiya.

МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ МЕЖДУ ДОШКОЛЬНЫМ И НАЧАЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ

Аннотация

В данной статье анализируются основные педагогические, психологические и организационно-методические механизмы обеспечения преемственности между дошкольным образованием и начальным образованием. Раскрываются вопросы формирования



необходимых компетенций у детей, поступающих в первый класс, последовательного развития знаний, навыков и умений, а также создания интегрированных образовательных программ. Кроме того, на основе практических примеров рассматриваются сотрудничество педагогов и воспитателей, преемственность образовательной среды и поэтапная поддержка развития ребёнка.

Ключевые слова: *дошкольное образование, начальное образование, преемственность, интеграция, компетенции, этапы развития, методическое сотрудничество, адаптация.*

MECHANISMS FOR ENSURING CONTINUITY BETWEEN PRESCHOOL AND PRIMARY EDUCATION

Annotation

This article analyzes the main pedagogical, psychological, and organizational-methodological mechanisms for ensuring continuity between preschool education and primary education. It examines the formation of appropriate competencies for children entering the first grade, the consistent development of knowledge, skills, and abilities, as well as the creation of integrated curricula. In addition, the cooperation between teachers and preschool educators, the continuity of the learning environment, and the step-by-step support of children's developmental stages are explained through practical examples.

Keywords: *preschool education, primary education, continuity, integration, competence, developmental stages, methodological cooperation, adaptation*



Har bir bolada Maktabgacha ta'lim-tarbiyaning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bola atrof-muhit haqidagi ilk tasavvurlarni shakllantiradi, nutqi rivojlanadi, fikrlashi faollashadi va ijtimoiy hayotga moslashishni o'rgana boshlaydi. Boshlang'ich ta'lim esa maktabgacha ta'limni yanada mustahkamlab, keying ta'lim jarayoniga rasmiy kirib kelish bosqichi sifatida bola faoliyatining yanada murakkablashishiga olib keladi. Shu sababli maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limgacha bo'lgan jarayonning uzviyligini ta'minlash - uzluksiz ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Agar bu uzviylik ta'minlanmasa, bola yangi muhitga moslashishda qiynaladi, bilimlar uzluksizlik buziladi, motivatsiya susayadi. Natijada o'qishga bo'lgan qiziqish yo'qolishi kabi salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu maqolada bu uzviylikning mazmun mohiyati, zarur shart-sharoitlari va uni ta'minlovchi amaliy mexanizmlar batafsil yoritiladi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligining pedagogik asoslari

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy qismi bu o'yin hisoblanadi. O'yin jarayonida bola ijod qiladi, o'rganadi va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi. Boshlang'ich ta'limda esa o'yin elementlari saqlangan holatda o'quv faoliyatiga o'tila boshlanadi.

Pedagogik uzviylik quyidagi asosiy yo'nalishlarda ko'zga yaqqol tashlanadi:

- *o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga bosqichma-bosqich o'tish;*
- *predmetga yo'naltirilgan bilimlarni shakllantirish;*
- *umumiy o'quv ko'nikmalarini (tinglash, tushunish, hikoya qilish, tahlil qilish) mustahkamlash;*
- *ta'limiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlash.*



Bu jarayonda har ikki bosqich o'rtasida metodik jihatdan moslik va muvofiqlik bo'lishi eng asosiy omillardan biridir. Psixologik uzviylikning ahamiyati bu-maktabga ostonasiga qadam qo'yish bolaning hayotidagi eng katta o'zgarishlardan biri bo'lib , yangi qoidalar, tartib-intizom, yangi muhit va o'qituvchining talablari -bularning barchasi bola psixologiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Psixologik uzviylik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *bolaning emotsional holatini barqarorlashtirish;*
- *maktabga moslashuv davrini yengillashtirish;*
- *mustaqillik ko'nikmalarini shakllantirish;*
- *muloqot madaniyatini rivojlantirish;*
- *o'ziga ishonchni mustahkamlash.*

Psixologlar fikricha, maktabga tayyorlik faqat bilimlar bilan o'lchanmaydi, u eng avvalo emotsional va ijtimoiy yetuklik bilan belgilanadi.

Metodik integratsiya va o'quv dasturlari uzviyligi: Ta'lim uzviyligi o'quv dasturlari mos kelganda to'laqonli ta'minlanadi. Maktabgacha ta'lim dasturida shakllantirilgan kompetensiyalar boshlang'ich ta'lim dasturining boshlang'ich nuqtasiga aylanishi kerak.

Ushbu quyidagi yo'nalishlarda integratsiya zarur:

- *Savod o'rgatish dasturi* — maktabgacha bosqichda fonematik tinglash, tovushni ajratish, nutqning to'g'ri rivojlanishi; boshlang'ich sinfda esa yozuv va o'qish ko'nikmalari.
- *Matematik tasavvurlarni shakllantirish* — sanash, taqqoslash, shakl va kattalik tushunchalari maktabda arifmetik amallar uchun poydevor vazifasini o'taydi.



- *Atrof-muhit bilan tanishtirish* — boshlang'ich sinfda tabiatshunoslik elementlari bilan davom ettiriladi.

- *Nutq madaniyati* — muloqot, hikoya tuzish, fikrni to'liq ifodalash ko'nikmalari mustahkamlanib boradi.

Metodik integratsiyaning asosiy maqsadidan biri bu- bolani o'qishga majbur qilish emas, balki o'qishga tayyorlashdir.

Tarbiyachi va o'qituvchi hamkorligi: uzluksizlikni ta'minlovchi eng samarali omillardan biri — maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'rtasidagi o'zaro hamkorlikdadir. Hamkorlik ushbu quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- *umumiy seminar va uchrashuvlar;*
- *o'quv dasturlarini muvofiqlashtirish bo'yicha maslahatlar;*
- *bolaning rivojlanish xaritasini birgalikda yuritish;*
- *bolalarni maktabga psixologik jihatdan tayyorlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar.*

Bu jarayon orqali boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolani oldindan tanib oladi, uning rivojlanish darajasini ko'radi va individual yondashuvni belgilay oladi. O'quv muhitining uzviyligi bu Maktabgacha ta'lim muhitidan maktab muhitiga keskin o'tish bolaning emotsional holatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli o'quv muhiti bosqichma-bosqich moslashtirilishi lozim.

Shuning uchun uyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- *o'yin elementlarini saqlagan holda dars jarayonini tashkil qilish;*
- *qulay sinf xonasi va metodik materiallar;*
- *bolalar faoliyatini rag'batlantirish tizimi;*
- *moslashtiruvchi adaptsiya dasturlari.*



Asta-sekinlik tamoyili asosida tashkil etilgan o'quv muhiti bolaning dars jarayoniga qiziqtirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash — uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bosqichidir. Bu uzviylik pedagogik, psixologik va metodik jihatdan izchil tashkil etilgandagina bola maktabga oson moslashadi, bilimlar uzviy shakllanadi va ta'lim jarayoni samarali davom etadi. Tarbiyachi va o'qituvchining hamkorligi, o'quv dasturlarining mantiqiy bog'liqligi, muhitning mosligi hamda bolalarning psixologik tayyorgarligini qo'llab-quvvatlash, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Hasanov B.** *Maktabgacha ta'lim psixologiyasi.* – Toshkent, 2019.
2. **O'zbekiston Respublikasining** "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 2020.
3. **Pedagogika instituti ilmiy jurnali.** — 2020–2023 yillar sonlari.
4. **Qodirova F., Turdieva N.** *Boshlang'ich ta'lim metodikasi.* – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
5. **Yuldasheva M.** *Uzluksiz ta'lim tizimi va uning rivojlanish yo'nalishlari.* – Toshkent, 2021.